

2019- YILDA MADANIYAT MUASSASALARINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI

Madaniyat – inson faoliyati va shu faoliyatning ahamiyatini belgilovchi ramziy qurilmalar va asarlar majmuidir. Madaniyat musiqa, adabiyot, badiiy tasvir, me'morchilik, teatr, kinematografiya kabi faoliyatlarda namoyon bo'ladi.


Mamlakatimizni yangilash va modernizatsiya qilishning bugungi yangi bosqichida madaniyat va san'atning o'рни va ahamiyatini oshirish, yosh avlodni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashga alohida e'tibor qaratadigan ustuvor vazifalardan biriga aylandi.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDAGI MUZEYLAR

Mamlakatimizda 2019- yilda jami muzeylar soni 100 tani tashkil etgan. Shundan, muzey filiallari soni 44 taga teng. Muzeylarga tashrif buyuruvchilar soni esa, 7777,8 ming kishidan iborat bo'lib, ulardan o'quvchi va talabalar ulushi 45,0 % ni tashkil etgan.



2010-2019- yillarda faoliyat ko'rsatayotgan muzeylar soni, birlikda



Bugungi kunda respublikamiz muzeylarida turli xildagi buyumlar va eksponatlar mavjud bo'lib, 2019- yilda muzeylardagi jami asosiy fond eksponatlari soni 2065,7 mingtani tashkil etgan. Noyob eksponatlar soni esa, 122,9 mingtaga teng. Muzey eksponatlarining 24,6 mingtasi rassomlik, 56,0 mingtasi grafika, 3,8 mingtasi haykaltaroshlik, 71,0 mingtasi amaliy san'at, 288,1 mingtasi numizmatika, 336,8 mingtasi arxeologiya buyumlari hamda 250,1 mingtasi suratlar, 277,6 mingtasi hujjatlar va 757,7 mingtasi boshqa eksponatlardan iborat.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDAGI TEATRLAR


2019- yilda respublikamizdagi jami teatrlar soni 50 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich 2005- yilga nisbatan teatrlar soni 9 taga oshganligini ko'rsatadi. Unda namoyish etilgan spektakllar (tomoshalar) esa, 11142 tadan iborat. Taqdim etilgan spektakllarga tashrif buyurgan tomoshabinlar soni 2646,7 ming nafarni tashkil etgan.

Teatr faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari

	2010- y.	2015- y.	2017- y.	2018- y.	2019- y.
Teatrlar soni, birlikda	42	52	50	50	50
Teatrga tashrif buyurgan tomoshabinlar soni, ming kishi	2709,0	2624,8	2462,1	2394,9	2646,7



2010-2019- yillarda faoliyat ko'rsatayotgan teatrlar soni, birlikda



Teatrlar soni hududlar kesimida tahlil qilinganida, eng yuqori ko'rsatkich Toshkent shahri (18 ta teatr) ulushiga to'g'ri kelmoqda. Keyingi o'rinlarda Qashqadaryo va Samarqand viloyatlarida 5 tadan, Qoraqalpog'iston Respublikasi va Farg'ona viloyatida 4 tadan, Andijon viloyatida 3 ta, Buxoro, Jizzax, Surxondaryo va Xorazm viloyatlarida 2 tadan hamda Namangan, Sirdaryo va Toshkent viloyatlarida 1 tadan teatr mavjud. Teatrlarga tashrif buyurgan tomoshabinlar ulushi hududlar kesimida tahlil qilinganida, Toshkent shahri (854,7 ming nafar), Samarqand (262,3 ming nafar), Xorazm (208,0 ming nafar) viloyati va Qoraqalpog'iston Respublikasi (202,2 ming nafar) yetakchi o'rinni egallaydi.

Respublikamizdagi mavjud jami 50 ta teatrlar janri bo'yicha taqsimlanganida, drama teatri 25 tani tashkil etib, teatrlar orasida yetakchi o'rinni egallaydi. Shuningdek, musiqali teatr – 7 ta, bolalar uchun qo'g'irchoq teatri – 7 ta, qo'g'irchoq teatri – 6 ta, yosh tomoshabinlar teatri – 4 ta va 1 ta opera va balet teatri mavjud.



2019- yilda teatrlarning janrlar bo'yicha taqsimlanishi, birlikda



Drama teatrlari - 25 ta



Musiqali teatrlar - 7 ta



Bolalar qo'g'irchoq teatrlari - 7 ta



Qo'g'irchoq teatri - 6 ta



Yosh tomoshabinlar teatrlari - 4 ta



Opera va balet teatri - 1 ta

2019- yilda namoyish etilgan spektakllar (tomoshalar) soni 11142 tani tashkil etib, qishloq aholisi uchun taqdim etilgan spektakllar soni 1127 ta ga (10,1 %) teng. 2019- yilda bepul namoyish etilgan spektakllar soni 1292 tadan iborat

2019- yilda jami teatr xodimlari soni 2119 nafarga teng bo'lib, shundan ayollar ulushi 48,3 % (1023 kishi)ni tashkil etgan.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDAGI KONSERT TASHKILOTLARI VA SIRK


Mamlakatimizda 2019- yilda jami faoliyat ko'rsatayotgan konsert tashkilotlari soni 72 ta. Konsert tashkilotlari tomonidan amalga oshirilgan konsertlar soni 2018- yilda 2834 tani tashkil etgan bo'lsa, 2019- yilga kelib esa konsertlar soni 29,8 % (3681 ta) ga oshgan. Shuningdek, tinglovchilar soni 2019- yilda jami 2820,9 ming nafarga teng bo'lgan.

2010-2019- yillarda O'zbekiston Respublikasida konsert tashkilotlari faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari

	2010- y.	2015- y.	2017- y.	2018- y.	2019- y.
Konsert tashkilotlari soni, birlikda	37	65	67	66	72
Xizmat ko'rsatilgan tinglovchilar, ming kishi	305,2	1252,9	1381,7	1788,0	2820,9
Konsertlar soni, birlikda	1500	2425	2505	2834	3681




2019- yilda faoliyat ko'rsatayotgan konsert tashkilotlari soni hududlar kesimida, birlikda



2019- yilda jami 72 ta konsert tashkilotlarining faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanganida, gastrol-konsert tashkilotlari – 42 tani, mustaqil jamoalar – 16 tani, filarmoniya – 10 tani hamda konsert zallari – 4 tani tashkil etgan.



2019-yilda faoliyat turlari bo'yicha konsert tashkilotlari, birlikda



Yuqoridagi diagrammadan ko'rish mumkinki, 2019- yilda konsert tashkilotlarining faoliyat turi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich gastrol-konsert tashkilotlari ulushiga to'g'ri keladi. Filarmoniya konsert tashkilotlari tomonidan 1971 ta, gastrol-konsert tashkilotlari tomonidan 1295 ta, mustaqil jamoalar tomonidan 288 ta konsertlar namoyish etilgan. Tinglovchilar soni bo'yicha taqsimlanganida, filarmoniya (1276,2 ming kishi) va gastrol-konsert (1254,3 ming kishi) tashkilotlarining ulushi yuqori ko'rsatkichga ega.

2019- yilda konsert tashkilotlarining umumiy shtatdagi artist xodimlari soni 1672 kishidan iborat bo'lib, o'tgan 2018- yilga nisbatan 246 taga ko'p. Shundan, ayollar ulushi (914 nafar) jamiga nisbatan 54,7 % ni tashkil etgan.

Sirk san'ati akrobatika, gimnastika, jonglyorlik, polvonlik, illyuzionizm, ot o'yinlari, dorbozlik, hayvon o'rgatish kabi janrlarni o'z ichiga oladi. Sirk artisti aql bovar qilmaydigan o'yinlar ko'rsatib, insonning cheksiz imkoniyatlarini namoyish etadi.


XX asr boshida Baratboy, Mullaboy Mansurov, Latofat Sarimsoqova, Rahmon Abduhalilovlar rahbarligidagi dastlabki milliy professional sirk jamoalari tashkil topdi. 1942- yilda esa, Toshkanboy Egamberdiyev rahbarligida Toshkentda birinchi milliy sirk jamoasi tashkil etildi.



2019- yilda sirk faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari

O'zbekiston Respublikasida sirk Toshkent shahrida o'z faoliyatini olib boradi. 2019- yilda sirkdagi namoyishlar soni 427 tani tashkil etgan. Namoyishlarda ishtirok etgan tomoshabinlar soni esa 160,0 ming kishini tashkil etgan. Shtatdagi artist xodimlar soni jami 175 nafarga teng bo'lib, umumiy soniga nisbatan artist ayollar ulushi (81 nafar) 46,3 % ni tashkil etadi.

Tomoshabin o'rinlar soni 2499 ta



Tomoshalar soni - 427 ta.



Tomoshabinlar soni - 160,0 ming kishi




O'zbekiston Respublikasidagi botanika va hayvonot bog'lari

O'zbekiston Respublikasida jami 3 ta hayvonot bog'i mavjud bo'lib, ular o'z faoliyatlarini Toshkent shahri, Farg'ona va Surxondaryo viloyatlarida olib bormoqda.




Hayvonot bog'lari faoliyati hududlar kesimida



2019- yilda respublika bo'yicha barcha hayvonot bog'lariga jami 940,4 ming kishi tashrif buyurib, ulardan 439,7 ming nafari bolalarni tashkil etgan. Hayvonot bog'lariga tashrif buyuruvchilar hududlar kesimida tahlil qilinganida, Toshkent shahri bo'yicha 656,9 ming kishi (jamiga nisbatan 69,8 %) tashrif buyurib, shundan 225,1 nafari bolalarni tashkil etgan. Shuningdek, Surxondaryo viloyatidagi hayvonot bog'iga 107,3 ming kishi (jamiga nisbatan 11,5 %) tashrif buyurib, ulardan 82,4 ming nafari bolalardan iborat. Farg'ona viloyati bo'yicha tashrif buyurganlar 176,2 ming kishidan (jamiga nisbatan 18,7 %) iborat bo'lib, ulardan 132,2 ming nafari bolalarni tashkil etgan.



**2019- yilda hayvonot bog'laridagi tashriflar,
ming kishi**



Mamlakatimiz hayvonot bog'larida mavjud bo'lgan turli xildagi hayvonot va o'simlik namunalari o'zining beqiyosligi bilan tashrif buyuruvchilarni o'ziga jalb etadi. Hayvonot bog'larida jami 562 ta hayvon namunalari hamda 2594 ta o'simlik namunalari mavjud.

Hayvonot bog'larida: sudralib yuruvchilar soni – 81 ta, parrandalar – 201 ta, sut emizuvchilar soni – 106 ta, baliqlar – 123 tani tashkil etadi.

**2019- yilda hayvonot bog'idagi hayvonot dunyosi namunalari turlari soni
hududlar kesimida, birlikda**

	Ham quruqlikda ham suvda yashovchilar	Sudralib yuruvchilar	Parrandalar	Sut emizuvchilar	Baliqlar	Boshqalar
O'zbekiston Respublikasi	12	81	201	106	123	39
Surxondaryo	-	22	59	22	-	23
Farg'ona	6	12	37	25	20	6
Toshkent sh.	6	47	105	59	103	10




2019- yilda hayvonot bog'laridagi hayvonot dunyosi
namunalari turlari soni, birlikda



Ham quruqlikda, ham suvda
yashovchilar

12



Parrandalar

201



Baliqlar

123



Sudralib yuruvchilar

81



Sut emizuvchilar

106



Boshqalar


39

O'z faoliyatini 1920- yilda boshlagan Botanika bog'i O'rta Osiyo hududidagi eng katta bog' hisoblanadi. Umumiy yer maydoni 66,0 gektarni tashkil etib, Toshkentning shimoliy-sharqiy qismida joylashgan. Botanika bog'i tirik tabiat muzeyi hisoblanib, tashrif buyuruvchilar o'simliklar olami bilan tanishibgina qolmasdan, tabiatga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishni ham o'rganadigan joy hisoblanadi. Botanika bog'ining asosiy qismi Shimoliy Amerika, Yevropa, Qrim, Kavkaz, Uzoq Sharq, Sharqiy va Markaziy Osiyo dendrofloralariga ajratilgan.

2019- yilda Botanika bog'iga 140,0 ming kishi tashrif buyurib, shundan 39,8 % (55,7 ming nafar) i bolalardan iborat. Botanika bog'ida 2019- yilda o'tkazilgan ekskursiyalar soni 325 tani tashkil etib, shundan o'quvchilar uchun 226 ta ekskursiyalar o'tkazilgan.



2015-2019- yillarda botanika bog'iga tashrif buyurganlar soni
dinamikasi, ming kishi




MADANIYAT VA DAM OLISH ISTIROHAT BOG'LARI

2019- yilda respublikamizda jami 192 ta madaniyat va istirohat bog'lari mavjud bo'lib, bu ko'rsatkich hududlar kesimida taqsimlanganida, eng ko'p madaniyat va istirohat bog'lari Toshkent shahri (27 ta) va Andijon viloyatida (27 ta) joylashgan. Sirdaryo (4 ta) va Jizzax (5 ta) viloyatlari qolgan hududlarga nisbatan past ko'rsatkichga ega.

2019- yilda istirohat bog'laridagi jami attraksionlar soni 1726 tani tashkil etgan. Shundan, 19,6 % i Toshkent shahri (338 ta attraksion), 13,5 % i Andijon viloyati (233 ta), 10,1 % i Samarqand viloyati (174 ta), 7,9 % dan Surxondaryo (136 ta) va Farg'ona (136 ta) viloyatlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.



Madaniyat va istirohat bog'lari soni hududlar kesimida,
birlikda



Madaniyat va istirohat bog'lariga jami tashrif buyurganlar soni 9596,7 ming kishini tashkil etib, shundan tashrif buyuruvchilarning 61,3 % i bolalar (5879,5 ming nafar) dan iborat. Toshkent shahri (2962,0 ming nafar), Namangan (1903,7 ming nafar), Andijon (919,0 ming nafar) va Farg'ona (841,6 ming nafar) viloyatlari tashrif buyuruvchilar bo'yicha yetakchi o'rinni egallagan.



2019- yilda madaniyat va istirohat bog'lariga tashriflar soni, ming kishi



2019- yilda madaniyat va istirohat bog'laridagi umumiy ishchi xodimlar soni 1826 kishini tashkil etgan, ulardan 544 tasi yoki 29,8 % i ayollardan iborat.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA MADANIYAT MARKAZLARI

Madaniyat markazlarining faoliyatini yanada rivojlantirish, moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, ularning yosh avlodni tarbiyalashdagi rolini oshirish, nomoddiy madaniy meros durdonalarini saqlash va targ'ib etish, xalq og'zaki ijodiyoti va havaskorlik san'atini rivojlantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018- yil 28-noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4038-sonli qarori tasdiqlandi.

2019- yilda madaniyat markazlari faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari

	Muassasalar soni, birlikda	Jami o'tkazilgan madaniy-ma'rifiy tadbirlar, birlikda	Madaniy-ma'rifiy tadbirlarda ishtirok etganlar, ming kishi
O'zbekiston Respublikasi	833	50690	18204,4
Qoraqalpog'iston Respublikasi	58	2595	998,1
viloyatlar:			
Andijon	75	4056	2885,5
Buxoro	50	3821	1828,8
Jizzax	38	1135	657,2
Qashqadaryo	59	3672	1047,6
Navoiy	32	3325	982,1
Namangan	80	4616	1356,3
Samarqand	78	3712	1158,9
Surxondaryo	76	5057	1663,6
Sirdaryo	32	1510	377,2
Toshkent	71	4477	1262,7
Farg'ona	83	5253	2170,9
Xorazm	65	3870	632,4
Toshkent sh.	36	3591	1183,1

Madaniyat markazlarida jami 50690 ta madaniy-ma'rifiy tadbirlar o'tkazilib, ulardan 33,1 % (16810 ta) ommaviy, madaniy-ma'rifiy va sport tadbirlari, 29,8 % i (15094 ta) mavzuli, adabiy-badiiy kechalar, 11,1 % i (5618 ta) teatrlashtirilgan tomoshalar va xalq sayllari, 26,0 % i (13168 ta) konsertlar ulushiga to'g'ri keladi. O'tkazilgan madaniy-ma'rifiy tadbirlarga tashrif buyurganlarning umumiy soni 18204,4 ming kishini tashkil etgan.


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA MADANIY MEROS OBYEKTлари

Moddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish, ilmiy o'rganish, ulardan oqilona foydalanish va yurtimizning sayyohlik salohiyatini kengaytirishda ularning o'rni va ahamiyatini oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018- yil 19-dekabrda "Moddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilindi.

2019- yilda respublikamizda madaniy meros obyektlari soni 8208 taga yetgan. Madaniy meros obyektlarining hududlar kesimidagi tahlilidan ko'rinadiki, yetakchi o'rinlarni Samarqand (1607 ta) va Qashqadaryo (1468 ta) viloyatlari egallaydi.




2019- yilda madaniy meros obyektlar soni hududlar kesimida, birlikda





2015-2019- yillardagi ishlab chiqarilgan filmlar va boshqa
kino mahsulotlari soni, birlikda



So'nggi 5 yilda filmlar ishlab chiqarish va boshqa kinomahsulotlar soni 1,1 barobarga oshdi. 2019- yilda jami ishlab chiqarilgan filmlar va boshqa kinomahsulotlar soni 129 tani tashkil etgan bo'lib, shundan 61 ta badiiy film (48,4 %), 39 ta dublyaj (30,2 %), 21 ta hujjatli film (16,3 %) hamda 8 ta multiplikatsion (6,2%) filmlar tayyorlandi.